

## SHOIRA SHAMS LIRIKASIDA TASHBIH SAN‘ATINING QO‘LLANILISHI

**Bobonazarova Gulzoda**

Urganch davlat universiteti, Filologiya fakulteti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Shoira Shams lirikasida tashbih san‘atini ishlatilish masalasi ochib berilgan. Shoira bu o‘rinda har bir baytda tashbih, ya‘ni o‘xshatish san‘atini juda jozibador va ta‘sirchan usulda barchaga tushunarli qilib ta‘svirlagan.*

**Kalit so‘zlar:** she‘riysan ‘at, tashbih, bayt, misra, o‘xshatishlar, mushabbih, mushabbixun bix, vajhi tashbih, vositai tashbih.

**Tashbih**—Sharq adabiyotida keng tarqalgan san‘atlardan biri bo‘lib, ”o‘xshatish” ma‘nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o‘rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko‘ra, o‘xshatish san‘atidir. Tashbih san‘ati ta‘svirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchalar ni o‘quvchi koz o‘ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma‘naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g‘oyasini o‘quvchi ongiga to‘laroq yetkazishga imkon beradi.

Sharq adabiyotshunosligida tashbihlar haqiqiy va majoziy tashbihlarga bo‘lingan.. Aniq hayotiy buyumlar, o‘xshatish uchun tanlangan bo‘lsa, **haqiqiy tashbih**, noaniq, mavhumiy tushunchalar tanlangan bo‘lsa **majoziy tashbih** hisoblangan.<sup>5</sup>

Masalan, Shoira Shamsning:

*Aylasam oh ul qaro qosh-u ko‘zining hajrida ,*

*Oqarib borgay yuzidek tiyra sochim tor-tor[Devon 109-bet]<sup>6</sup>*

Bunda shoira mahbubaning qosh va ko‘zi hajrida ,sochi xuddi yuzidek oqarib ketganini ta‘sirchan va jozibali tarzda ifodalagan. Bu yerda shoira **majoziy tashbihni** qo‘llagan.

*Bir qalandardek jahona jar solur,*

*Kuylayur ul: Sen g‘aribmi,men g‘arib[Devon28-bet]*

<sup>5</sup> Anvar Hojiahmedov Mumtoz badiiyat malohati ‘ ‘Sharq ” nashriyot-matbaa konserni bosh tahriri yoshi Toshkent -1999

<sup>6</sup> Shoira Shams “Samandar” devoni “Quvonchbek –Mashhura ” MChJ nashriyoti Urganch -2019 yil. Bu va keying o‘rinlarda ham shu kitobdan foydalanilgan.

Bu o'rinda shoira oshiq ishq jabrida shunchalik qiynganiki, hattoki jahonga ham xuddi qalanderdek jar solganini ,atrofiga boqib, insonlardan senmi yoki menmi g'arib deya fig'on chekayotganini aniq va lo'nda ifodalagan. Tashbih san 'atini naqadar go'zal ifoda etilganiga yana bir bor guvohi bo'ldik.

*Oldi-yu aql-u xushimni shamsdek partav yuzung,*

*Tashladi jonimni oxir bir yonuq g'amxonag'a.[Devon 16-bet]*

Oshiq shunchalik telba bo'lganki, mahbubasi ishqida aql va hushidan ayrildi. Uning yuzi xuddi shams ya'ni quyoshdek partav, ya'ni nur sochardi. Oshiq yor vaslida o'zini bir yonuq g'amxonaga tashlaydi. Bu baytda ham tashbih san'atining go'zal ifodasini ko'rdik.

*Yo'q erur olamda inson ko'nglidek mavhum bisot,*

*Onda gul birla tikonni birga barpo aylading [Devon33-bet]*

Bunda shoira olamda inson ko'nglidek mavhum narsa yo'q ekanligini ifoda qilmoqda.Haqiqatdan ham inson ko'ngli, misli bir labirintga o'xshaydi. Sababi uni tushunish ,anglab yetish mushkul hodisa. Uni qanchalik anglaganing sayin shunchalik o'zgaradi .Shu so'zlar vositasida **tashbihni** ifodalab o'tmoqda.Shuningdek ikkinchi misrada gul va tikon so'zları **vositasida tazod** san'atini ham mahorat bilan qo'llagan.

*Sabodek aylanib zulfim aro yelsang,*

*Uzorim handasi anda yashil erdi.[Devon 44-bet]*

Bu o'rinda shoira yorni zulf ya'ni qora sochini sabodek aylanib yeil yurganligini go'zal tashbih san'ati vositasida ifoda etilgan.

*Kelding-u ketding hayotimg'a chaman mavsumidek,*

*Necha yil hajring ila dil bo'ldi-ku bulg'onchalik[Devon 63-bet]*

Bunda oshiq mahbubini xuddi mavsumdek tez kelib-ketganini va necha yil uning hajridan dili kuyanligini ajoyib tashbih vositasida ifoda etgan.

*Qumridek aylab fig'on nola qilgum har zamon,*

*Bir sado qilmas bayon,benavo o'ldurgusi.[Devon 57-bet]*

Ushbu baytda shoira yor vaslida har zamon, xuddiki qumri singari oh-u fig'on chekishini va ko'p marotaba ul yorni chorlasa ham, bir sado chiqarmaganini ko'rishimiz mumkin. Bu o'rinda yor nolasini sayrab hech ham tinmaydigan qumriga o'xshatmoqda

*Tanim kabi to'lg'ondi bu tun,*

*Ko'zimni ufqdek xunbora qilding [Devon 36-bet]*

Ushbu baytda shoira yorning tani xuddiki Jayhun daryosi singari to'lg'anganini va ko'zini ufqdek qamashtirganini tashbih vositasida istifoda qiladi.Shuningdek, shoira tashbih bilan birgalikda, talmeh san'atini ham Jayhun so'zi yordamida ifodalaydi.Ya'ni Jayhun daryo nomini ifodalamoqda. Bu daryo Amudaryoning

qadimgi nomlaridan biri sanaladi.Qadimgi turk tilida “Joy” va “Xun” so‘zlaridan kelib chiqqan.Xunlar yashaydigan joy degan ma‘noni anglatadi.

*Ashkimni to ‘ksam hajring tunida,*

*Durdek qo ‘nubdur baldolaringa [Devon 25-bet]*

Bu o‘rinda shoira ayriliq tunida ko‘z yoshlari xuddiki durdek yog‘ilganini ajoyib tashbih vositasida ifodalamoqda. Dur bu o‘rinda xuddiki marjon sifatida ifodalangan.

*Samandardek iki ko ‘z otashida*

*Ichim yondi misoli „g‘of ”yaqosi [Devon 58-bet]*

Ishq alangasi shunchalik kuchlik, xattoki Samandar qush misoli ikki ko‘zi otashda yondi. Ichi shunchalik yondi va hech narsadan xabari yo‘qdek go‘yo. Afsonaviy qushlardan biri Samandar haqida turli xil fikrlar mavjud. Samandar go‘yo qorli-muzli o‘lkalarda yashagan afsonaviy qor qushidir. Bu qushning tumshug‘i polat,qanotlari esa chaqmoq toshidir. Samandar qush ikkita bola ochadi. Bolalari bir kunning o‘zidayoq qanot chiqarib, parvoz qiladi. Bundan sevingan Samandar hamma narsani unutib, tumshug‘ini qanotiga uradi. Shunda olov chiqib, o‘zi ham,bolalari ham kuylay ketadi. Mumtoz she‘riyatda bu qush majoziy ma‘noda ishlataladi.Shoira bu baytda tashbih san‘atini juda go‘zal holda ifodalab bergan. Shoira shu sababdan ham bu afsonaviy qush sharafiga devonini „Samandar” deb nomlagan bo‘lsa kerak.

*Sarg ‘aribdur hajr-u hijronda yuzim gulbargidek,*

*Fasli ko ‘klamda el-u, men za ‘faroniy kuzdaman.[Devon 92-bet]*

Hajr va ayriliq alami natijasida, uni yuzi so‘lgan gul bargi singari sarg‘ayib ketgan. Bu hodisa xuddiki, kuz faslida sodir bo‘lgandek va uni sariqlik qoplaydi. Bu o‘rinda ham tashbihning yana bir jozibasini guvohi bo‘ldik.

*Jamoling –mohdek derlar xatodur,*

*Sababki, ul yuzi dog‘lik matodur.[Devon 104-bet]*

Jamolingni moh, ya‘ni oydek deb aytsalar, xato deb biladi. Chunki, uni yuzini dog‘li matoga qiyoslaydi. Bunday deb aytishiga sabab shuki, yuzda ham xuddi oy singari dog‘lari bordir. Go‘zal o‘xhatishni yana bir bor guvohi bo‘ldik.

*Zaif jismim firog‘inda xazondek paymol o‘ldi,*

*Uzorimni chaman ichra zarafshon ayladim, bir kel [Devon 66-bet]*

Bu o‘rinda shoira yor jismi mahbubani firog‘ida xazondek zaiflashib qolganini go‘zal tashbih vositasida ifodalaydi. Mahbubani chaman ichra qidiradi va bir bora kelishini istaydi.

Shoira tashbih san‘ati bilan bog‘liq misollarda oshiqning mahbubasiga muhabbatini shu qadar go‘azl ifodalaganki, bu o‘rinda ko‘z yoshlari qolmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,haqiqiy shoirlar tashbihdan faqat so‘z o‘yini sifatida emas,balki asar g‘oyasini jozibali ifodalash maqsadida foydalanganlar.Tashbih

san‘atining ildizlari shu sababdan ham, uzoq davrlarga zamonlarga borib taqaladi. Shoira Shams bu san‘atini sodda va ravon usulda qo‘llanishiga alohida ahamiyat qaratgan. Bu maqoladan she‘riy san‘atlarning ifoda xususiyatlari, o‘quvchini diqqatini tortadi. Adabiyotimizda mana shunday, ta‘sirchan badiiy san‘atlar albatta juda ko‘p. Bizesa bu o‘rinda o‘xshatish san‘atiga to‘xtaldik.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. *Anvar Hojiahmedov Mumtoz badiiyat malohati "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. Toshkent -1999*
2. *Shoira Shams Samandardevoni "Quvonchbek-Mashhura" MCJ nashriyoti Urganch-2019*
3. *To‘xta Boboyev Adabiyotshunoslik asoslari Toshkent-O‘zbekiston-2002*
4. *uz.m.wiktionary.org*
5. *<http://hozir.org>intensiv-kurs>*